

GIDROMETROLOGIK FAVQULOTDA VAZIYATLAR VA ULARNING TURLARI

Yaquboliyeva Mohichehra Odiljon qizi
Andijon Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda gidrometrologik favqulotda vaziyatlar va ularning turlari haqida va aholi va hududni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: odamlar o'limi, aholi punktlari, suv bosishi, infratuzilmalar,

Abstract: This thesis provides brief information about hydrometrological emergency situations and their types, as well as protection of the population and the territory from emergency situations.

Key words: human death, settlements, flooding, infrastructures,

Аннотация: В данной дипломной работе даны краткие сведения о чрезвычайных гидрометеорологических ситуациях и их видах, а также о защите населения и территории от чрезвычайных ситуаций.

Ключевые слова: гибель людей, населенные пункты, наводнения, инфраструктуры,

Ma'lumki, inson manfaati, uning qadr-qimmatini, salomatligi va xavfsizligini ta'minlash - kundalik hayotimiz jabhalarida dolzarb, ustuvor va muhim o'rinni egallaydi. Insoniyatning rivojlanish tarixi tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar bilan bog'liqdir. Respublikamizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlardan biz sel, suv toshqini, qor va yer ko'chkilari alohida e'tibor qaratamiz, chunki O'zbekiston hududining geografik o'rni va iqlim sharoitlari sel, qor ko'chkilari, ko'chkilar va toshqin hodisalarining sodir bo'lishiga zamin yaratadi.

Gidrometeorologik xavfli hodisalarga: odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar, aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, sayyohlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar kiradi. Tarixdan hammamizga ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotiga yetkazgan juda katta miqdordagi moddiy zarari hamda insonlarni o'limi bilan bog'liq favqulotda vaziyatlar sodir bo'lgan, 1969 yil 5 maydagi Namangan viloyatining Norin, Qoradaryo va Sirdaryo daryolarining o'zanidan toshgani, 1991 yil 4 may kuni Angren shahar Jigariston qo'rg'onida sodir bo'lgan ko'chki oqibatda 56 nafar fuqaro halok bo'lgan. Xususan, Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulotda vaziyatlardan aholi va hududlarni himoya qilish bo'yicha ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevral kuni "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulotda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-585-sonli Qarori bilan "Xavfli gidrometeorologiya va geologiya hodisalari bilan bog'liq favqulotda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" va "Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chish va yer

ko’chki hodisalari xavfini kamaytirish bo’yicha Toshqinga qarshi hukumat komissiyasining asosiy vazifalari va faoliyatini tashkillashtirish, vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlarining toshqinlar, sel oqimlari, qor ko’chish va yer ko’chki hodisalari bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha funktsiyalari belgilab berildi. Har yili yakunida Toshqinga qarshi hukumat komissiyasi yil davomida amalga oshirilgan respublika hududida toshqinlar, sel oqimlari, qor ko’chish va yer ko’chki hodisalari bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilib, kelgusi yil uchun kechiktirib bo’lmaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga joriy etadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Yormatov G.YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. —T.: Aloqachi, 2009 yil. — 348 b.
- 2.Yormatov G. YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oquv qollanma. -T.: 2005.
3. I. Tojiev, M. X.Nigmatov "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. -260 b.
4. M. X. Nigmatov I.Tojiev, Ilxomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» Oquv qollanma. —T.: Iqtisod-moliya, 2005. -195 b.
- 5.H.E.Goyipov Hayot faoliyati xavfsizligi. —T.: Yangi asr avlodi.